

## KUZGI BUG‘DOY NAVLARI URUG‘LARINING UNUVCHANLIGIGA FUNGITSIDLARNI TA’SIRI

**Davronov Qaxramonjon Anvarjonovich**

*Farg‘ona davlat universiteti q.x.f.d., dotsent*

[davronov79@gmail.com](mailto:davronov79@gmail.com)

**Saminov Avazbek Alimardon O‘g‘li**

*Farg‘ona davlat universiteti tayanch doktoranti*

[saminovavazbek25@gmail.com](mailto:saminovavazbek25@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada kuzgi bug‘doy urug‘lari ekishdan oldin qorakuya, ildizchirish, zang va boshqa zamburug‘li kasalliklarga qarshi turli preparatlar bilan dorilash usullari. Urug‘lik materiallarni tayyorlash va ularni dorilashda maxsus urug‘lik saqlash omborlari, hamda urug‘lik bug‘doyni saralash va fungitsidlar bilan dorilash muhim hisoblanadi. Bu orqali kuzgi bug‘doy navlari urug‘larining unuvchanligiga fungitsidlarni ta’sirini o‘rganish orqali urug‘lik materiallarni sifat ko’rsatkichlari yuqori darajada bo’lishi taminlanadi.

**Kalit so‘zlar :** Kuzgi bug‘doy, urug‘lik materiallar, fungitsid, nav, kasallik, zararkunanda, dorilash, ekishga tayyorlash.

### (THE EFFECT OF FUNGICIDES ON THE GERMINATION OF SEEDS OF AUTUMN WHEAT VARIETIES)

**Annotation:** in this article, methods of Pharmacy with various preparations against karakuya, rooting, rust and other fungal diseases before planting autumn wheat seeds. The preparation of seed materials and their medicinal use is important for special seed storage stores, as well as seed wheat sorting and fungicide dosing. By studying the effect

of fungicides on the germination of seeds of autumn wheat varieties, it is ensured that the quality indicators of seed materials are at a high level.

**Keywords:** autumn wheat, seed material, fungicide, variety, disease, pest, medicinal, preparation for planting.

## KIRISH

Hozirgi kunda g‘alla don ekinlaridan sifatli va mo‘l hosil olishda sellektsiya, urug‘chilik ilmiy tadqiqot institutlarini rivojlantirish, urug‘lik materiallarini turli xil kasallik va boshqa omillar ta’siriga chidamliligin oshirish, hamda urug‘chilik ishlarini yanada takomillashtirish orqali turli xil kasallik va zarakunandalarga, qurg‘oqchilikga hamda yotib qolishga chimamli, ser hosil va sifatli don maxsuloti beradigan yangi navlarni yaratish talab etiladi. Shu bilan birgalikda urug‘lik materiallarni saqlash va dastlabki ishlov berish jarayonlarini yangi innovatsion texnologiyalarni qo‘llash dolzarb hisoblanadi.

Ma’lumki, kuzgi bug‘doy urug‘lari ekishdan oldin qorakuya, ildizchirish, zang va boshqa zamburug‘li kasalliklarga qarshi turli preparatlar bilan dorilanadi. Urug‘lik materiallarni tayyorlash va ularni dorilashda maxsus urug‘lik saqlash omborlari, hamda urug‘lik bug‘dohni saralash va fungitsidlar bilan dorilash muhim hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOYIYA

Kuzgi bug‘doy urug‘larini ekishga tayyorlashda urug‘lik materiallarni sifat ko’rsatkichlari yuqori darajada bo’lishi hamda urug‘lik materiallarni davlat standartlari asosida saralashda hududlarning tuproq iqlim sharoitiga mos holda saralanib olinishi va urug‘lik materiallarni turli xil zararkunanda va kasalliklarga qarshi fungitsidlar bilan ishlov berilishiga jiddiy ma’suliyat bilan yondashish, urug‘lik materiallarni o’z vaqtida sifatli tayyorlanishi kutilayotgan natijani beradi[1-2].

Yuqoridagilarni hisobga olib, urug‘lik donlarni dorilashda fungitsidlardan oqilona foydalanishni o’rganish bo'yicha tadqiqotlar olib borildi.

“Farg‘onadonmaxsulotlari” AJ korxonasi qoshidagi Laboratoriya sharoitida urug‘lik bug‘doy unuvchanligi, unib chiqish quvvati va ularga fungitsid hamda stimulyatorlarni ta’sirini o’rganish bo'yicha laboratoriya sharoitidagi tajribalar olib

borilidi. Tajribada Bezostaya, Semrug' va O'zbekiston-25 navlarini Elita urug'lik materiallari olinib ular Gerkules (tarkibida 6% li ta'sir etuvchi modda tebukonazolbo'lib, u suvda eruvchi suspenziya 1 tonna urug'ga 0,5 litr) preparati suvga aralashtirib 10 l eritma holida 1 t urug'ga ishlov berish hisobi bo'yicha tayyorlandi. Laboratorya sharoitida urug'lik bug'doyni ekishda 2 qaytariqda 50 g dan namuna olindi. Urug'lik namunalar begona aralashmalar, shikastlangan urug'lar vaboshqalardan tozalandi. ifloslik 50 g namunada 0,50 g dan oshmasligi kerak. Olingan 50 g namunadan 4 ta qaytariqda 100 ta dan urug' sanab olindi. 100 donaurug'ning og'irligi O'zbekiston 25 navida o'rtacha 4-5 g. Har 50 g dan olingannamuna 4 ta qaytariqda ekish uchun tayyorlandi, dastlab ular uchun tayyorlangantermostat dezenfektsiya qilindi va petri chashkalar spirt bilan artilib qaynatib sovutilgan suv bilan yuvildi va petri chashkasi o'lchamidek dumaloq qilib qirqilgan (2 qavat) qog'oz qaynatib sovutilgan suvga solib ho'llandi va buqog'ozlar perti chashkasiga solindi. So'ng ho'l qog'oz ustiga 100 dona urug' bir xil tekislikda yoyildi, so'ng urug'lar ustidan biroz suv purkaldi (urug' ustinamlanguncha), so'ngra boshqa bir bo'sh perti chashka bilan usti yopildi. Yopilgan petri idish ustiga namunaning nomi yozilganidan so'ng termostatga qo'yildi [1-3].

Namunalar termostatga joylanganidan so'ng, uning harorati 25 C° qilib qo'yildi. Ushbu namunalar vaqtি-vaqtি bilan kuzatib borildi. Har sutkada namunalarni ko'zdan kechirish uchun termostatdan barcha namunalar olindi, so'ngra barcha namunalar bir qator ko'zdan kechirildi, kuzatish davomida namunalarda kechadigan unuvchanlik, namlik, va o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, kasalliklar rivojlangan yoki rivojlanmaganligiga qarab ijobiy va salbiy o'zgarishlar o'rganilib borildi. Jarayon ko'zdan kechirilgandan so'ng qaynatib sovutilgan suv bilan biroz purkaldi va qayta termostatga joylab harorati 25 C° qilib qo'yildi.

Tajribada Semrug' va Bezostaya navlariga nisbatan O'zbekiston 25 navida bo'rtish, unish va boshqa jarayonlar yaxshi kechganligi, kasalliklarga chalinish kuzatilmaganligi, urug'lik materiallarni yetishtirish, saqlash, ularni me'yorida dorilash va boshqa bir jarayonlar yaxshi olib borilganligi urug'lik materiallarni sog'lom va unuvchanligi yuqori bo'lganligini, urug'likda kechadigan barcha jarayonlarni ijobiy kechishi kuzatildi [4].

O'zbekiston 25 navi urug'larining bo'rtish jarayoni va unishi yuqori

bo'lganligini kuzatish mumkin. Shu bilan birgalikda unuvchanlik ko'rsatkichi 99,8 % ni tashkil etganligi, hamda 3 sutkalik maysasining uzunligi 1,2-1,9 sm, 4 sutkalik 3,8-4,5sm, 5 sutkalik 4,5-5,4 sm bo'lganligi kuzatildi. Ildizchasining uzunligi 3 sutkalik 0,9-1,4 sm, 4 sutkalik 2,9-3,8 sm, 5 sutkalik 3,8-4,3 sm bo'lganligi boshqa namunalarga nisbatan yuqori bo'lganligini ko'rish mumkin (1- jadval).

Semrug' va Bezostaya navlarida olib borilgan laboratoriya tajribasi urug'larning bo'rtish jarayoni va unishi kabilarni kuzatish mumkin.

Unish jarayonida dastlab 3 kun urug'larning unuvchanligi, maysalash va boshqa bir jarayonlar yaxshi kechdi, lekin to'rtinchi kuni ikki namunaning ya'ni Semrug' va Bezostaya navlarining bittadan petri chashkasida mog'or zamburug'i sporasi va mitselisi ko'rina boshlandi. Bu esa urug'lik namunalar talab darajasida dorilanmaganligi yoki boshqa bir jarayonda zamburug'lar urug'likga tushganligini ko'rsatadi.

1- jadval

### **Laboratoriya sharoitida olingan natijalar**

Nomi	Unuvchanligi(4 ta qaytariq uchun umumiy) %	Maysasininguzunligi, sm			Ildizchasininguzunligi, sm		
		3 sutkalik	4 sutkalik	5 sutkalik	3 sutkalik	4 sutkalik	5 sutkalik
Bezostaya	99,5	1,1-1,7	3,8-4,4	4,5-5,3	0,9-1,3	2,9-3,6	3,6-4,1
Semrug'	99,25	1,0-1,6	3,7-4,3	4,4-5,2	0,8-1,3	2,8-3,6	3,6-4,0
O'zbekiston	99,8	1,2-1,9	3,8-4,5	4,5-5,4	0,9-1,4	2,9-3,8	3,8-4,3
25							

Shuning uchun saqlash jarayonlari to'g'ri tashkil etilsa mahsulot sifati buzilmaydi. Donni saqlashda sifatning salbiy o'zgarishi asosan namlik, issiqlik, havo, mikroorganizmlar, hashoratlар, kemiruvchi va qushlar tomonidan yuzaga keladi. Shu

bilan birga texnik zararlanishiga yo'l qo'ymaslik lozim aks holda don naturasi, shaffofligi, oqsil, kleykovina miqdori va donning rangi, hidida salbiy o'zgarishlar yuz beradi.

Xulosa qilib aytganda har bir urug'lik maxsulotlarni ekishdan avval urug'lik materialni turli xil qo'shimchalardan, turli kasallik va zamburug'lardan xalos qilish uchun urug'lar dast avval turli hildagi preparatlar bilan ishlanishi lozin shundagina urug'lik materiallar ekish uchun standart xolatga keladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Dospelov B.A. "Metodika polevogo орыта". Moskva. Agropromizdat, 1985, 248-256
2. Abdualimov SH.X. (2006). Use of Unum stimulator in winter wheat. The scientific basis for the development of cotton and grain farming on farms. Proceedings of the International Scientific and Practical Conference. T. pp. 375-378.
3. Methods of conducting field experiments. UzPITI, Tashkent, 2007, 147 pages.
4. Давронов, К. А. (2018). Эффективность применения "биоудобрения" "Биоэнергия" при возделывании хлопчатника. Актуальные проблемы современной науки, (5), 180-182.